

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./QFXG5673>
UDC: 347.77(045)(575.1)

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI VA XALQARO SHARTNOMALARDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLARNI RAQAMLI MUHITDA MUHOFAZA QILISHGA DOIR HUQUQIY NORMALAR

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellektual mulk huquqi kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-2940-8718
e-mail: abдумуминйулдасhev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XX asrning oxirgi choragidan boshlab mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida huquqiy muhofazasini ta‘minlashga doir muammolarning yuzaga kelishi va o‘z navbatida, muallif (huquq ega)lar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi tenglik (balans) masalasini doimiy ushlab turish bilan bog‘liq jihatlar xususida so‘z boradi. Ma‘lumki, 1996-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan aynan mualliflik va turdosh huquqlar obyektlarining Internet tarmog‘ida huquqiy muhofazasini ta‘minlashga doir ikkita muhim hujjat – internet shartnomalari qabul qilingan. Aynan ushbu hujjatlarning qabul qilinishi dunyo mamlakatlarining mualliflik huquqi sohasidagi milliy qonunchiliklariga zarur o‘zgartirishlar kiritishlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, oxirgi 20-30 yillikda sohaga doir boshqa xalqaro va mintaqaviy hujjatlardan ham raqamli muhitda mualliflik va turdosh huquqlar muhofazasini ta‘minlashga doir normalar o‘rin egalladi. Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekistonning mualliflik huquqiga doir milliy qonunchiligida ham asarlarning Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida huquqiy muhofazasini ta‘minlashga doir normalar o‘z aksini topgan. Maqolada aynan ushbu jihatlar hamda mavjud normalarni amaliyotda qo‘llashga doir muammolar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, xalqaro konvensiya (Bern konvensiyasi, Rim konvensiyasi) va shartnomalar (BIMT internet shartnomalari, TRIPS kelishuvi) normalari hamda doktrinal manbalar asosidagi nazariy-qiyosiy qarashlar o‘rganilgan. “Raqamli muhit”, “raqamli texnologiyalar”, “multimedia”, “kibermuhit” kabi tushunchalar tahlil qilinib ularning mohiyati muhokama etilgan. Yakunda O‘zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning raqamli muhitdagi muhofazasini ta‘minlash zarurati, huquqiy mexanizmlar, “internet shartnomalar” normalarini amaliyotda qo‘llash masalalari, bunda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o‘rni haqida xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, internet shartnomalar, raqamli muhit, kibermakon, multimedia, telekommunikatsiya tarmog‘i.

ПРАВОВЫЕ НОРМЫ ОБ ОХРАНЕ АВТОРСКИХ И СМЕЖНЫХ ПРАВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРАХ

Юлдашов Абдумумин Абдугопирович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы начиная с последней четверти XX века, связанные с обеспечением правовой охраны объектов авторского права и смежных прав в

информационно-коммуникационных сетях, и в свою очередь вопросы, связанные с постоянным поддержанием баланса между авторами (правообладателями) и пользователями. Как известно, в 1996 году Всемирная организация интеллектуальной собственности приняла 2 важных документа – «Интернет-договоры» – для обеспечения правовой охраны авторских и смежных прав в Интернете. Принятие именно этих документов оказало серьезное влияние на страны мира, вносящие необходимые изменения в свои национальные законы об авторском праве. При этом в последние 20–30 лет нормы по обеспечению защиты авторских и смежных прав в цифровой среде заняли особое место среди других международных и региональных документов, относящихся к сфере. Следует отметить, что национальное авторское законодательство Узбекистана также отражает нормы правовой охраны произведений в сети Интернет и телекоммуникационных сетях. В статье обсуждаются эти аспекты и проблемы применения существующих норм на практике. Также был проведен теоретико-сравнительный анализ норм международных конвенций («Бернская конвенция», «Римская конвенция»), соглашений («Интернет-соглашения ВОИС», соглашение ТРИПС) и доктринальных источников. Также в статье рассматривается анализ таких понятий, как «цифровая среда», «цифровые технологии», «мультимедиа», «киберсреда», и их сущность. В заключении сделаны выводы о необходимости обеспечения защиты авторских и смежных прав в цифровой среде в Узбекистане, правовых механизмах, вопросах практического применения норм «Интернет-договоров», роли организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе.

Ключевые слова: авторское право, смежные права, «Интернет-договоры ВОИС», цифровая среда, киберпространство, мультимедиа, телекоммуникационная сеть.

LEGAL NORMS ON THE PROTECTION OF COPYRIGHT AND RELATED RIGHTS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT IN THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL TREATIES

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,

Associate Professor, Department of
Intellectual Property Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article deals with the problems associated with ensuring the legal protection of objects of copyright since the last quarter of the twentieth century and related rights in information and communication networks and, in turn, issues related to the constant maintenance of a balance between authors (right holders) and users are discussed. It is known that in 1996 the World Intellectual Property Organization adopted 2 important documents - "Internet Treaties" - to ensure the legal protection of copyright and related rights on the Internet. It was the adoption of these documents that had a serious impact on the countries of the world, making the necessary changes to their national copyright laws. At the same time, in the last 20-30 years, the rules for ensuring the copyright protection and related rights in the digital environment have taken place among other international and regional documents related to the field. It should be noted that the national copyright legislation of Uzbekistan also reflects the norms of the legal protection of works on the Internet and telecommunication networks. The article discusses these aspects and the problems of applying existing norms in practice. Theoretical and comparative analyzes were also carried out based on the norms of international conventions ("Bern Convention", "Rome Convention") and agreements ("WIPO Internet treaties", TRIPS Agreement) and doctrinal sources. The article also discusses the analysis of such concepts as "the digital environment", "digital technologies", "multimedia", and "cyber environment" and their essence. As a result of discussions, conclusions are drawn about the need to ensure the protection of copyright and related rights in the digital environment in Uzbekistan, legal mechanisms, issues of the practical application of the norms of "Internet contracts", and the role of organizations managing property rights on a collective basis.

Keywords: *copyright, related rights, “WIPO Internet treaties”, digital environment, cyberspace, multimedia, telecommunications network.*

Kirish

Globalashuv jarayonlarining tez sur’atlarda rivojlanishi har qanday toifadagi ijodkorlardan o’z asarlariga nisbatan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta’minlash bo’yicha zarur choralar ko’rishni talab qilmoqda. Bugunga kelib, insonning axborot olishga bo’lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog’liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni ushbu texnik vositalar yordamida ijtimoiy munosabatlarga “kibermuhit”, “axborot jamiyati”, “raqamli texnologiya”, “raqamli muhit”, “multimedia” kabi tushunchalar kirib keldi [1]. Shu bilan birga, aynan ushbu tarmoqlarning asosini tashkil etuvchi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari muhofazasini ta’minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanib ulgurani sir emas. Bunda, birinchi navbatda, intellektual mulk obyektlarining axborot jarayonlari jadallashib borayotgan vaqtda ularning huquqiy maqomini aniqlash maqsadida xalqaro doiradagi hujjatlar hamda doktrinal manbalarga tayanish lozim. Aytish lozimki, yuqoridagi tushunchalar ko’p jihatdan ayni bir mazmunni ifodalab, sinonim tarzda ham turli tasnifdagi yuridik adabiyotlarda qo’llanishini kuzatishimiz mumkin.

Kembrij lug’atida “kibermuhit” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Internetning chegarasiz ko’rinish sohasi bo’lib, bunda insonlar masofaviy tarzda uchrashish va har qanday savol yuzasidan axborot almashish mumkin bo’lgan muhit” [2]. Aynan ushbu lug’atda “multimedia” tushunchasi esa quyidagicha ta’riflangan: “Kompyuter yoki ko’rsatuvlarda harakatlanadigan va harakatlanmaydigan rasm, tovush, musiqa va so’zlar kombinatsiyasidan foydalanish” [3]. Ayni

shunga o’xshash ta’riflar doktrinal manbalarda ham keltirilgan: “Multimedia – kompyuter yoki boshqa elektron vositalar orqali kelayotgan matn, grafik, tovush, animatsiya va videolarning o’zaro kombinatsiyasidir” [4]. Shunga ko’ra, “raqamli muhit” “multimedia” tushunchasiga nisbatan kengroq hisoblanadi. Ma’lumki, internet va telekommunikatsiya tarmog’i o’zaro farqli tushuncha hisoblanib, fikrimizcha, “raqamli muhit” tushunchasi ularni o’zida birlashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi huquq egalari va ijodkorlarni o’z asarlariga bo’lgan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta’minlash bo’yicha zarur choralar ko’rishga undamoqda. “XX asrning oxirgi o’n yilligidan boshlab Internet natijasida virtual texnologiyalar va turli axborot tarmoqlarining yuzaga kelishi raqamli “mahsulot” ko’rinishidagi ijodiy asarlarni ko’paytirish, modifikatsiya qilish, tarqatish va ulardan foydalanishga nisbatan juda katta ta’sir ko’rsatdi” [5]. Shu sababli ham so’nggi yillardagi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga doir huquq normalari bevosita texnik himoya choralari o’zida tushuncha va qoidalarni o’zida aks ettirmoqda.

Asarlardan foydalanish hamda ularni fuqarolik muomalasiga kiritish bo’yicha nazoratning huquqiy mexanizmlari sifatida asosan asarlarni shartnoma asosida muhofaza qilish, mulkiy huquqlarni jamoaviy tarzda boshqarish instituti va asarlar himoyasining texnik usullarini kiritish mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha jabhalariga Internet va telekommunikatsiya tushunchalari va ular bilan bog’liq munosabatlar kirib borganligi hamda buni fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy munosabatlarda yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, telekommunikatsiya tarmog'ida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, kompyuter texnologiyalari yordamida axborot almashinuvi bilan bog'liq munosabatlar mavjudligi sababli huquqiy munosabatlarda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda [6]. Shu o'rinda ushbu tushuncha mazmuniga ham to'xtalib o'tsak. "Telekommunikatsiya" atamasi yunon va lotin tillarining o'zaro aralashuvidan kirib kelgan bo'lib, "tele" – uzoqda va lotincha "communico" – "bo'lishmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'zdan bugungi kundagi mazmunda foydalanilishi fransuz tilidan kirib kelgan. Bunga 1904-yilda fransuz muhandisi va yozuvchisi Eduard Estone tomonidan uning yozma tarzda ishlatilishi sabab bo'lgan [7].

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolada ilmiy bilishning *tahlil, umumlashtirish, mantiqiy, tarixiy, statistik, tizimli-tuzilmaviy* o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

XX asrning oxirlariga kelib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirish sohasida jahonda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) Internet shartnomalari, Yevropa Ittifoqining Yashil kitobi, AQShning "Raqamli muhitda mualliflik huquqi to'g'risida"gi Qonuni (DMCA) va boshqalarni misol keltirish mumkin. Xususan, mualliflik huquqi sohasidagi yetakchi olimlar Irini Stamatou di va Paul Torremansning fikricha, mualliflik huquqi rivojlanish bosqichlarini o'rganishni raqamli dunyodan oldingi (1) va raqamli muhitda (2) amalga oshirish lozim [8]. Ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda aytish lozimki, agarda biz XIX asr oxirida qabul qilingan Bern konvensiyasiga e'tibor qaratsak, oradan 100 yil o'tib, aynan internet sohasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasiga doir xalqaro hujjatlar qabul qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash lozimki, 1960-70-yillarda qabul qilingan Rim

va Jeneva konvensiyalari bevosita turdosh huquqlarga taalluqli va internetda huquqiy muhofaza bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'zida aks ettirmagan.

Mualliflik huquqiga doir asosiy xalqaro hujjatlarda ham asarlar va turdosh huquqlar obyektlarining raqamli muhitdagi muhofazasiga doir norma mavjudmi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Ma'lumki, 1886-yilda qabul qilingan Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasida muhofaza ostidagi asarlar sirasiga adabiyot, fan va san'at sohasidagi asarlar, ifodalanish shakli va usulidan qat'i nazar, kirishi belgilangan [9]. Aynan ifodalanish usulini keyinchalik, aniqrog'i, 1979-yilda kiritilgan o'zgartirishlarning asosi deb hisoblash mumkin. Buni ushbu davrda radio va televideniyaning rivojlanishi, natijada "kabel orqali yuborish", "simli vositalar yordamida axborotning uzatilishi" kabi tushunchalar yuzaga kelganligi bilan bog'lash mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Bern konvensiyasining qabul qilinishiga mualliflar bilan bir qatorda quyidagi nashriyotlar tomonidan ko'rsatilgan tashabbus ham alohida o'rin egallagan: *the Association Litteraire Internationale, the Association Litteraire et Artistique Internationales, the Societe des gens des lettres va the Boersen-verein der deutschen Buchandler* [10].

Shuningdek, Bern konvensiyasining 20-moddasida a'zo mamlakatlar o'z mualliflari uchun ushbu konvensiyadan ham kengroq huquqlarni berish yoki unga zid bo'lmagan qoidalar yuzasidan o'zaro maxsus bitimlar tuzishlari mumkinligi belgilangan. Bu esa o'z-o'zidan davlatlararo mualliflik huquqi muhofazasiga doir yanada kengroq xususiyatdagi kelishuvlar tuzish mumkinligini anglatadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, 2005-yilda O'zbekistonning ushbu konvensiyaga qo'shilishi sohaga doir maxsus qonunning yangi tahrirda konvensiya normalariga mos tarzda qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

XX asr oxirlariga kelib, intellektual mulk savdo-sotiq munosabatlariga doir bitimlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Jahon savdo tashkiloti (JST)ning ta'sis etuvchi bitimlaridan biri "Intellektual mulkning savdo jihatlari bo'yicha bitimi" (TRIPS)ni bunga yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. TRIPS bitimining maqsadi aynan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan global tarzdagi himoyani ta'minlashdan iboratdir. Qayd etish lozimki, ushbu bitimning asosiy mohiyati Yevropa Ittifoqi va AQSh qonunchiligi bilan o'zaro hamohangdir. Bunga asosiy sabab XX asr o'rtalari va 90-yillarda jahonda intellektual mulk bo'yicha "yetakchilik" aynan ushbu mintaqa va davlatlarga tegishli bo'lgan. Bevosita TRIPS bitimining muqaddima qismiga e'tibor qaratsak, unda JSTga a'zo mamlakatlar intellektual mulk huquqlariga rioya qilishni ta'minlashda samarali usullar ishlab chiqishlari mumkinligiga doir norma mavjud [11].

Ta'kidlash lozimki, TRIPS bitimining Bern konvensiyasidan asosiy farqi unda normalarning to'g'ridan to'g'ri ravishda huquqiy himoyaga qaratilganidir. Buni odatda tadqiqotchilar normalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llash nuqtayi nazaridan "*lex specialis*" deb (*bu o'rinda – Bern konvensiyasi, sharh muallifga tegishli*), tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan umumiy normalarni keltirishni esa "*lex generalis*" (*bu o'rinda – TRIPS bitimi, sharh muallifga tegishli*) atamalarini qo'llash orqali tushunish mumkin [12].

Nebraska universiteti tadqiqotchilari fikriga ko'ra, aynan TRIPS bitimining qabul qilinishi va Bern konvensiyasining raqamli muhitdagi "qaroqchilik"ni bartaraf etishdagi muammo yechimini amalga oshirilmaligi mavjud tizimni o'zgartirish va bu orqali intellektual mulk o'g'riligini to'xtatishga sabab bo'ldi [13].

Albatta, XX asrning 90-yillari o'rtalariga kelib, Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining amaliyotga keng joriy etilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar-

ga doir yangi qoidalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada 1996-yilning 2–20-dekabr kunlari bo'lib o'tgan BIMTning Diplomatik konferensiyasida ikkita muhim xalqaro hujjat – internet shartnomalari (BIMTning mualliflik huquqi shartnomasi va BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi) qabul qilindi [14]. Ahamiyatli, BIMT doimiy ravishda raqamli muhitda mualliflik huquqlari himoyasini ta'minlash yuzasidan xalqaro standartlarni joriy etishda faol ravishda ishtirok etib keladi. Yuqoridagi ikki xalqaro hujjatning ham qabul qilinishi raqamli tarmoqlarda ijodiy asarlardan noqonuniy foydalanishning oldini olishga qaratilgan. "Ushbu bitimlarning ahamiyati ular da ijrochilar va fonogramma tayyorlovchilar hamda keng omma o'rtasidagi adolatli balans masalasi kengroq yoritib berilganligidadir".

Xususan, BIMT ham o'z bayonotida ushbu shartnomalarning qabul qilinishi texnologiyalar va bozor munosabatlari rivojlantirish nuqtayi nazaridan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi mavjud shartnomalarni to'ldirish hamda yangilash maqsadini belgilaganligini bildirgan. Bern konvensiyasi va Rim konvensiyasi qabul qilingan davrdan beri asarlarning yangi turlari, yangi bozorlar va asarlardan foydalanishning yangi usul va tarqalish yo'llari tarqalganligini alohida qayd etish kerak [15]. Internet shartnomalar muhofaza ostidagi asarlarning raqamli muhitda tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq muammolarni hal etishda asosiy o'ringa ega. Buni biz AQSh Savdo vakillik idorasi tomonidan har yili an'anaviy tarzda e'lon qilib boriladigan Savdo bo'yicha hamkor davlatlarda intellektual mulk sohasidagi huquqlarga rioya qilish va himoya qilish to'g'risidagi hisobot (301-Hisobot)da ham O'zbekistonga doir qismlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston ushbu internet shartnomalarga 2019-yilda qo'shilgan.

Agarda yuqoridagi hisobotda 2019-yilga qadar O'zbekistonning internet shartnoma-

larga qo‘shilishi lozimligi xususida so‘z yuritilgan bo‘lsa, 2019-yildan keyin endilikda ushbu shartnomalar mexanizmlarini amaliyotda qo‘llash lozimligi qayd etib kelinmoqda. Xususan, 2018-yilgi ushbu hisobotda AQSh O‘zbekistonni quyidagi 3 ta ishni amalga oshirishi lozimligiga undashi aytilgan: Fonogrammalarni tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlashdan muhofaza qilish to‘g‘risidagi Jeneva konvensiyasi (1), BIMTning internet shartnomalari (2) hamda xorijiy ovoz yozuvchilari asarlarini himoya qilish (3).

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekiston 2019-yilda ushbu shartnomalarga qo‘shildi. Ayni ushbu hisobotning 2022-yilgisida esa BIMTning internet shartnomalari endilikda xorijiy huquq egalari va mualliflar manfaatlarini himoyasini ta’minlash lozimligiga alohida urg‘u berilgan [16]. Demak, bugungi kunda mamlakatimiz oldida amaliy chora-tadbirlarni ko‘rish bilan bog‘liq masalalar turibdi. Bunda, birinchi navbatda, yuqorida ta’kidlanganidek, shartnomaviy munosabatlarni keng joriy etish, mulkiy huquqlarni jamoaviy tarzda boshqarish instituti rivojiga davlat tomonidan keng urg‘u berish va himoyaning texnik usullarini ishlab chiqish hamda ularga huquqiy maqom berish masalalarini ko‘rib chiqish lozim.

Shu o‘rinda himoyaning texnik choralari tushunchasiga to‘xtalsak. “Himoyaning texnik vositalari dasturiy qurilmalar yordamida elektron hujjatlardan foydalanish va foydalanishni nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ko‘pincha himoyaning texnik vositalari nusxa ko‘chirishning oldini olish yoki cheklash uchun ishlatiladi. Himoyaning texnik vositalari turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. DVD disklarni takrorlovchi moslamaga hududiy kodlanmagan dunyoning boshqa hududida ishlab chiqarilgan disklarning ishlamasligi yoki litsenziyali kontentdan yuklab olingan musiqaning uchinchi qurilmaga yozib olinmasligi bunga misol

bo‘ladi. Ko‘pincha “himoyaning texnik vositalari” atamasi o‘rniga “elektron hujjatlarga nisbatan huquqlarni boshqarish” tushunchasi qo‘llanadi [17].

Ahamiyatlisi, mamlakatimizning “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 63-moddasida ham asarlarni himoya qiluvchi texnik vositalar haqida so‘z yuritilgan. Xususan, “asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlarni amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e’tirof etiladi”.

BIMTning mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasining 11-moddasiga ko‘ra, ahdlashuvchi tomonlar mazkur shartnoma yoki Bern konvensiyasi bo‘yicha o‘z huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan mualliflar foydalanadigan mavjud texnik vositalarni chetlab o‘tish va o‘z ijodiga ruxsat bermagan harakatlarni cheklashga qaratilgan tegishli huquqiy himoya va samarali vositalarni ta’minlaydilar. Aynan ushbu mazmundagi norma turdosh huquq subyektlari bo‘lgan ijrochilar va fonogramma tayyorlovchilarga nisbatan qo‘llanishi bo‘yicha Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo‘yicha shartnomasining 18-moddasidan o‘rin olgan [18].

Xulosalar

Agarda norma ijodkorligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u xoh jinoyat qonunchiligi, xoh fuqarolik qonunchiligi bo‘lsin, oxirgi kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar aynan telekommunikatsiya tarmoqlari bilan bog‘liqdir. Xususan, buni 2006-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida ham ko‘rish mumkin. Mazkur

qonunning oldingi tahririda “barchaning e’tiboriga yetkazish” atamasi mavjud bo’lmagan.

Ma’lumki, barchaning e’tiboriga yetkazish – bu asarlar yoki turdosh huquqlar obyektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o’z tanloviga ko’ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo’lgan tarzda barchaning e’tibori uchun yuborishdir. Mazkur qonunning oldingi tahririda bu kabi tushunchalar mavjud bo’lmagan. Mualliflik huquqida eng muhim jihat – bu mutlaq huquqlar bilan bog’liq hisoblanadi. Yuqoridagi qonunning 19-moddasida aynan ushbu huquqlar tasnifi keltirilgan bo’lib, e’tiborli jihati mazkur harakatlarning (tarjima qilish, takrorlash, tarqatish, barchaning e’tiboriga yetkazish, omma oldida namoyish etish va h.k.) barchasini bevosita telekommunikatsiya tarmoqlari yordamida amalga oshirish mumkin. Tadqiqotchi R.Xursanovning fikriga ko’ra, davlat axborot tizimlaridagi ma’lumotlarga nisbatan ularni ko’chirib

olish, tarqatish kabi harakatlarni amalga oshirish, agar ushbu harakatlar ularga o’zgartirish kiritish bilan bog’liq holda amalga oshiriladigan bo’lsa, himoya qilish zaruriyatini ishlab chiqishi lozim [19]. Bizningcha, bu kabi himoyalash choralarini nafaqat rasmiy axborot manbalari, balki to’liq ravishda mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan tatbiq etish kerak.

Yevropa Ittifoqining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining raqamli muhitdagi muhofazasi jarayoniga e’tibor qaratsak, har bir jarayonda alohida tartibda munosabatlar huquqiy tartibga solinganligini ko’rishimiz mumkin [20]. Fikrimizcha, kelgusidagi mualliflik huquqiga doir munosabatlarni raqamli muhit qonun-qoidalari nuqtayi nazaridan tartibga solish maqsadida O’zbekistonda ham qonunchilikni takomillashtirib borish, amaliyot bilan nazariyani uyg’unlashtirish, yuqorida ta’kidlangan 3 ta muhim yo’nalishga asosiy urg’uni qaratish talab etiladi.

REFERENCES

1. Aplin T. Copyright law in the Digital Society. School of law King’s College London. Hart Publishing. Oxford – Portland Oregon, 2005, p. 2.
2. Cambridge Dictionary. Available at: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cyberspace>
3. Cambridge Dictionary. Available at: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/multimedia>
4. Vivanco V.T. Todo el poder de multimedia [All the power of multimedia]. 2nd ed. Mexico, McGraw-Hill, 1995.
5. Mazziotti G. EU Digital Copyright Law and the End-User. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2008, p. 4.
6. Jarova A.K. Informatsiya. Pravovoye regulirovaniye obrashheniy informatsii v Internetе [Information. Legal regulation of traffic information in the Internet]. Ed. I.L. Bachilo. Moscow, State Institute of Law RAS RF, 2006, 207 p.
7. Gekht A.B., Komissarova T.S., Moseev V.I., Tserianashvili I.A. Istoriya svyazi [Communication history]. Federal Communications Agency. St. Petersburg, St. Petersburg State University of Telecommunications named after M.A. Bonch-Bruevich, 2016.
8. Stamatoude I.A., Torremans P.L.C. Copyright in the New Digital Environment: The need to redesign Copyright. London, Sweet & Maxwell, 2000, p. 4.

9. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, as amended on September 28, 1979. Available at: <https://www.wipo.int/wipolex/ru/treaties/textdetails/12214>
10. Pardo J.R. Copyright and Multimedia. *Kluwer Law International*, 2003, p. 55.
11. Agreement on trade-related aspects of Intellectual Property rights. Available at: https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt_wto01_001ru.pdf
12. Hildebrandt M. Copyright in Cyberspace. *Law for Computer Scientists*. Available at: <https://lawforcomputerscientists.pubpub.org/pub/yjwfiwk5/release/8>
13. Olu A., Okuonghae N. Challenges of copyright allenges of copyright protection in the digital age: the Nigerian perspective. *Library Philosophy and Practice*, 2022, p. 7159. Available at: <https://digitalcommons.unl.edu/libphilprac/7159>
14. Diplomatic Conference on Certain Copyright and Neighboring Rights Questions. Available at: https://www.wipo.int/meetings/en/details.jsp?meeting_id=3010
15. WIPO Internet Treaties. Available at: https://www.wipo.int/copyright/en/activities/internet_treaties.html
16. Office of the United States Trade Representative. 2022, 2021, 2020, 2019 Special 301 Report. Available at: <https://ustr.gov/sites/default/files/IssueAreas/IP/2022%20Special%20301%20Report>
17. Digital Restrictions Management. Available at: www.drm.info
18. World Intellectual Property Organization (WIPO)TRT/WPPT/001. Available at: <https://wipolex.wipo.int/en/text/295480>
19. Xursanov R. The legal model of digital rights and the problems of providing information. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2022, no. 2 (13), pp. 644–650.
20. Access to European Union law. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/search.html?scope=EURLEX&text=copyright&lang=en&type=quick&qid=1679845146220>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 2-SON

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 29.04.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 21,4 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 19.

TDYU tipografiyasida chop etildi.